

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**  
**O`ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI**

# **KURS ISHI**

**MAVZU: TINISH BELGILARINING USLUBIY  
XUSUSIYATLAR**

**BAJARDI: MIRZAYEVA GULNOZA**

**TEKSHIRDI: F.F.N., HAYITOVA FERUZA**

**TOSHKENT-2015**

*Reja:*

***I.Kirish***

***II. Asosiy qism***

- 1. *GJ.KBH.JHUHB,JGYUHKGIYHK***
- 2. *Tinish belgilarining qo'llanilish uslublari***
- 3. *Asarlarda tinish belgilarining vazifasi***

***III. Xulosa***

Hozirgi o'zbek yozuvida 10 xil tinish belgisidan foydalaniladi:

- 1) nuqta - (.);
- 2) vergul - (,);
- 3) nuqtali vergul - (;);
- 4) ikki nuqta - (:);
- 5) tire - (-);
- 6) so'roq belgisi - (?);
- 7) undov belgisi - (!);
- 8) ko'p nuqta - (...);
- 9) qavs - ( ),
- 10) qo'shtirnoq - (" ", " ").

Har bir tinish belgisi muayyan qoidalar asosida qo'llanadi. Tinish belgilaringin qo'llanishiga oid qoidalar to'plami punktuatsiya deyiladi.

**Tinish belgilari** - muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilari) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. Tinish belgilarning yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim — tinish belgilar miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yigiindisi — punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'limgan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham

muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: **nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo'shtirnoq**. Ularning aksariyati 19-asrning 2-yarmida ayrim gaz va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan.

Tinish belgilari o'z vazifasiga ko'ra, 2 ga bo'linadi: a) chegaralovchi tinish belgilari — muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, biron bir gap bo'lagini intonatsion mazmuniy jihatdan ajratib ko'rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi (so'zlovchi)ning subyektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi tinish belgilari qavs, qo'shtirnoq, yagona qo'shaloq belgi sifatida qo'llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire; b) ajratuvchi tinish belgilari — mustaqil gaplarni, ularning qismlari (bosh va ergash gaplar, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning predikativ qismlari)ni, gapning uyushgan bo'laklarini, birgalik ergashishli qo'shma gaplarni, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini, nutqning bo'linganligini ko'rsatuvchi tinish belgilari nuqta, so'roq va undov belgilari, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, ko'p nuqta. Ba'zi tinish belgilari ham chegaralash, ham ajratish vazifalarini namoyon eta oladi. Tinish belgilari tuzilish jihatdan ham 2ga bo'linadi: a) bir elementli tinish belgilari — vergul, tire, nuqta; b) ko'p elementli tinish belgilari bu guruh, o'z navbatida, 2 elementli (so'roq, va undov belgilari, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs), 3 elementli (ko'p nuqta) va 4 elementli (qo'shtirnoq) ga ajraladi. Qo'llanish o'rniغا ko'ra, tinish belgilari 3 guruhga bo'linadi: gap oxirida qo'llanadigan (nuqta, so'roq va undov belgilari), gap o'rtasida qo'lanadigan (vergul) va aralash, ya'ni gapning turli o'rinalarida qo'llaniladigan (tire, ikki nuqta, qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta).

Tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) prinsiplari asosida belgilanadi.

Ma'lum bir maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda ko'rsatishda qo'shimcha, ammo zaruriy vositadir. So'zlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olamiz:

### **Poyezd keldi. Poyezd keldi! Poyezd keldi?**

Bu uch gapdag'i xabar, his-hayajon, so'roq mazmuni gaplardan so'ng qo'yilgan tinish belgilari orqali bilinadi.

Tinish belgilari mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga ko'ra qo'llanadi:

1. Mazmun. Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov yoki so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi. Masalan:

- **O'zimiz institut ochyapmiz, bilib qo'y...**
- **Institut?**
- **Institut! (As. M.)**

O'zgalarning gapi bo'lsa, qo'shtirnoqqa olinadi:

**"Ertaga sinovlar boshlanadi", - dedi o'qituvchimiz.**

Gaplar orasidagi mazmun munosabatlari qo'shma gaplarda ikki nuqta, tire, vergul yoki nuqtali vergul orqali ifodalanadi.

Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar orqali ifodalanadi.

2. Grammatik qurilish. Ayrim tinish belgilari gapning grammatik tuzilishiga ko'ra qo'llanadi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yimasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

Ayrim ergash gaplar o'z tuzilishiga ko'ra vergul bilan ajratiladi. Masalan, Yo'lchi, qancha aqchasi bo'lsa ham, berishga tayyor edi. (0.) Bu jumladagi qancha aqchasi bo'lsa ham ergash gap bo'lgani uchun bosh gap orasida to'xtalish (pauza) bo'lmasa ham, undan so'ng vergul qo'yiladi.

1. Ohang. Ohang fikr, maqsadning og'zaki nutqdagi ifodasidir.

Har bir tinish belgisi o'ziga xos ohangga ega bo'ladi: undov, so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta - tugallangan ohang bilan; qo'shtirnoq, qavs kichik

to'xtalish bilan, ajratilgan ohang bilan; ikki nuqta, tire - izoh ohangi bilan; vergul, nuqtali vergul kichik to'xtalish ohangi bilan talaffuz qilinadi.

Ayrim tinish belgilari ohang talabi bilangina qo'yiladi:

**Qush mag'rur - qanoti bo'lgani uchun,**

**Tog' mag'rur - savlati bo'lgani uchun.**

Bu jumlada tire ohang talabi bilan, birinchi gaplarning ma'nosiga diqqatni jalg etish talabi bilan qo'yilgan.

**Vatanimiz - kelgusida buyuk davlat bo'ladi.** Bu jumlada kesim egaga bo'ladi bog'lamasi bilan birikkani uchun egadan so'ng tire qo'yimasligi kerak edi. Ammo

ega mantiqiy urg'u olgani uchun undan so'ng tire qo'yilgan  
**TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI (PUNKTUATSIYA)**

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin 18- asrda kiritgan. U o'zbek yozuvida 19-asrning 70- yillaridan boshlab, ishlatila boshlagan.

Dialoglardagi har bir gapning boshida

**Amaki o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimnimizni bilasizmi?**

**-Bilmayman Qayerdan kelganigizni menga farqi yo'q.**

**Siz tabibmisiz o'zi?**

**Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'lanu dardmonlarga shifo yetadi. Bo'masa yo'q.**

**Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayaptimi? - dedi Kesakpolvon g'ijinib.**

**Olloh bir meniki emas, barchamizniki, -dedi chol ovozini bir parda ko'tarib.  
– Siz nomusilmon odamga o'xshar ekansiz. (T.M. SHaytanat)**

Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida.

**Til-millatning qalbi. Yer- don, dehqon-xazinabon. Mehnatning boyligi.**

Uyishiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin.

**O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik- barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.**

Muallif gapi bilan ko''chirma gap orasida.

**“Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir” deb yozgan edi. L.N.Tolstoy.**

Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.

**1996-yil 26- aprelda ta'sis etilgan.**

**-“Amir Temur” ordeni;**

**“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni.**

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushurilsa.

**Olamni quyosh yoritadi, insonni –ilm.**

Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtaida.

O'zbekiston milliy sug'urta kompaniyasi-O'zbekinvest Veksel-qimmatli qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.

Zid manoli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida.

### **Vaqting ketdi- baxting ketdi.**

Kishilar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi.

Biz- yoshlar-milatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddag'i Ulubek rasadxonasida-bir paytlari bu yerdan turibulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi-katta ko'lamda tamirlash ishlari boshlab yuborildi.

Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida.

### **Toshkent-Andijon avtomobil yo'li tamirdan chiqarmoqda.**

#### **Nashr –kitobot ishlaridan.**

X.Sultonov. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. – T.,G'.G'ulomnomnidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

#### **SO'ROQ BELGISI**

So'roq belgisi so'roq gaplardan keyin qo'yiladi: Ishga tayyormisiz?

So'roq gaplar bittadan ortiq bo'lib kelishi mumkin: bunday paytlarda so'roq belgisi quydagicha bo'ladi. So'roq gaplarning har biriga ahamiyat berish lozim topilsa yoki har qaysi so'roq gap mazmuniga ko'ra mustaqil bo'lsa har biridan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi: **Qishloqlar qanday? Og'aynilar yaxshi yurishibdimi?** Agar so'roq gaplar mazmunan umumiyligi fikrni ifodalasa, so'roq belgisi eng so'nggi so'roq gapdan keyin qo'yiladi: - **Tag'in mehmon boshlab keldingmi? Kim kelyapti: Sarvarmi, Rahbaroymi? Yo akangning bolalarini yetaklab kelyapsanmi? (G'afur G'ulom.)** So'z yoki ibora noaniq bo'lsa, unda

gumon ifodalansa, so'roq belgisi qo'yiladi: **Bu ishlarning hammasi yarim soat (?) ichida bir o'zi bajardimikin?**

**-Arsen, senga qanday qo'shiq aytib berishimni xohlaysan?**

**- Hozirmi?**

**-Yo'ge.** Biron simfoniya orkestri konsertida. Sen zalda o'tirasan, men sahnada turib, aynan senga bag'ishlab qo'shiq aytaman. Nimani aytishimni istarding? Italyancha qo'shiq yoqadimi? (CH.Aytmatov)

Ba'zan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan biri so'roq gap shaklida, ikkinchisi esa uning izohi sifatida kelishi mumkin. Bunday holatlarda ular orasiga vergul yoki tire qo'yilishi mumkin. **Kelmaydimi, bu menga qorong'i. Ovoziga nima deysiz chinakam qiyomat-a?- dedi Xolmatga**

**-Ha ovozi joyida. Saltanatxonning o'rtoq'imi?**

**-Kimning qizi o'zi?**

**-Razzoq so'fi degan bir odamning.**

**-Razzoq so'fi?**

**-Xa Razzoq so'fi. Xudo bergen lekin so'figa.**

**Xaridori ham ko'pdir? (Cho'lpon Kecha va kunduz.)**

## UNDOV BELGISI

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan olingan. Undov belgisi quydagি o'rnlarda qo'yiladi:

Kuchli his hayajonni ifodalagan gaplardan so'ng: Yoshligimizda naqadar bahtiyor edik!

-Esinga qoyilman betafiq! Shuncha esing boru nomoz o'qimaysan!

-Sizga ergashib, shunday bo'ldimda! Mingboshi endi juda yovilb qo'ysi:

**Obbo benomoz-e! Gapdan toza bergen hudo senga**

**-SHaylaysan, shaylaysan!**

**-To'y!**

**-Ha to'y!**

**-Nima to'y! (Cho'lpon) Kecha va kunduz.**

Buyurish, tilak, orzu manosini ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng: **Hoziroq bularni ko'zimdan yo'qot! Qani endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!**

Gap boshida kelib, kuchli his hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda ha va yo'q so'zlaridan so'ng: **Yo'q Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!**

**-Xey menga qara! -deb qichqirdi. U oshondovni va u orgasiga o'girilib qaragach, qahr bilan basharasiga qichqirdi:- Xey bo'yniga urib haydadim bopladir deb, o'ylama tag'in! Men buni shunday qo'ymayman! Men jurnalistman, mustaqil jurnalist! Bilib qo'y! (Chingiz Aytmatov) Qulayotgan tog'lar.**

#### KO'P NUQTA

Ko'p nuqta 19- asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlagan. 1876- yildan etiboran, Turkiston viloyatining gazetida muntazam qo'llangan. Mazmunan tugalanmay qolgan gaplar oxirida. **To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi. – mana shu imperiya... Miryoqub hech narsa anglamadi. So'zlovchining cheksiz his hayajonini beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun. Do'xtir ayol og'iz berkitib pig' pig' yig'ladi. Men – men... O'zbekistonda besh olti yil ishlab edim, -deya yig'ladi. – Bechora xalq-a (T.Murod) Qish... Butun atrof oppoq libosda... matn qisqartirilsa. Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz? – Xo'sh xo'sh? – Ilkimdin kelguncha... -deb**

boshlanar edi. –Ha ha bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X.To'xtaboyev) Fikr bo'lib bo'lib aytilsa yoki duduqlansa Muhammadyor yolg'iz. –Turkistonda birinchi m m m artaba tia ....t...t...tr, - dedi-da fikrga toldi. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirsa.

-Manavi dub eshiklariningizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi? - .... tushundingizmi deyapaman? Ko'p nuqta quydagi o'rnlarda qo'llanadi:

Fikrning tugalanmaganligi, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun: Agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz.....

Bu yolg'iz so'qqa bosh hayvon o'z umr yo'lini boshqacha bir tarzda emas, huddi mana shunday holda otishni xohlar shunga intilardi... (Chingiz Aytmatov)

Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchining o'yashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi. Bugun...bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?

Axir uning istagi faqat tog' oshib o'tib, so'ng o'sha yoqlarda abadulabat qolishgina ediku.... (Qulayotgan tog'lar.)

Bazan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko'rsatish uchun ham ko'p nuqta qo'yiladi. – Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz....

Biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun: Bugun yettinchi bo'limga kelib,..., Fig'oni oshdi. (Tohir Malik)

**Unga va akamga bugun xat yozaman....(Chingiz Aytmatov)**

**KO'P NUQTA, UNDOV VA SO'ROQ BELGILARING BIRIKKAN HOLDA KELISHI**

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha question- so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi "Q" ishlatila boshlagan. Keyinchalik uning shakli hozirgi holatga "?" kelib qolgan. O'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1990-yildan so'ng muntazam ishlarila

boshlagan. Kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi, kabi so'roq olmoshlaridan so'ng rang tusni bildiruvchi sifatlar qanday? Qanaqa? Qaysi? So'roqlariga javob bo'ladi. So'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo'lgan so'roq gaplardan keyin undov va so'roq belgisi birikkan holda (!?) qo'yiladi: **Go'zallik olamni qutqarishiga kim ishonadi!?**

**Bu nima gap?**

**Tushummi o'ngimmi?**

**Yo ishongan tog'i ham ag'darilmoqchimi?**

**Yo Miryoqub ham boshqa yoqadan bosh chiqarmoqchimi?**

**Miryoqubsiz uning kuni kun bo'ladimi?**

Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov belgisi birikkan holda qo'yiladi: **-Ah! –Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo'lib qoldi. –Direkto'rimiz-a?!** (HG)

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxasislarning fikricha u lotincha lo- undov so'zidan kelib chiqgan bo'lib unga nuqtaning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Kuchli his- hayojon bilan berilgan savolni ifodalaydigan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (...) qo'llanadi: **-Nafisa!...Nafistoy!...-dedi Aziz o'pkasi yumshab, ko'zlariga qaynoq yosh keldi.** (HG) buyirish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning ohirida ham, ishlatiladi. – **Siz ham oyoqni ishlating!-deb buyirdi.- Suv ostida o'pqonlar ko'p. Totib ketmasin. So'z boshida kelib, kuchli his hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng qo'yiladi. Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqqadas fotihangni ber.** Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z gaplar hayajon bilan aytilsa ulardan so'ng qo'yiladi. Mazmunan tugallanmagan so'roq gaplardan so'ng so'roq belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (...) ishlatiladi. **Hovlilaringiz katta ekan –dedi u nihoyat chidayolmay. Charos**

unga yarq etib qaradi. Ko'zlarida sevinch uchqunlarni bir lahma lovullab ketganday bo'ldi. Yodgor uning bu qarashidan bordingizmi degan savolni uqdi. –nimalarni ko'rdingiz? – dedi Charos jilmayib. – so'rilaringizni panjarasi chiroyli ekan. – yana – oshxonangizdagি derazaning bir ko'zi sinibdi. – yana vodoprodingiz muzlab qolibdi. – uni eritdik. Yana...(O' Xoshimov)

## VERGUL

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada 15 asrdan boshlab ishlatila boshlagan. O'zbekcha matnlarda 20 asr boshidan boshlab uchraydi. Uyishiq bo'laklar orasida. Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tuta bilishi, do'stlari orasidagi mavqeи, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turishi lozim. Undalma vergul bilan ajratiladi. **Uka, o'qishning erta-kechi bo'maydi. Men, Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga purviqor tog'lar! Kirish so'z va kirish birikmadan so'ng. Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Farobiyning yozishicha, inson, jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi. Tasdiq, inkor, ta'kid va shukabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'viladi. Ha, hushyor bo'lish har bir fuqoroning Vatan oldidagi muqqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqida o'ylab ko'rdingizmi? Ajratilgan bo'laklar orasida. Onaga, eng, ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozoda mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga. Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan-Daryo, o'tirgan – bo'yra. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi. Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu**

**xislatlaringiz sizni hudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik yo siz keling.**

Undov his hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlariladi. **Ey, menga bir qarab qo'ying.** Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi. **Inson qalbi javohirdek toza, pok bo'lmosg'i lozim, deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.** Vergul quydag'i o'rnlarda qo'llaniladi:

Uyishiq bo'laklar orasida:

Bog'lovchisiz birikkan uyishiq bo'laklar orasida: Namangan, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon- **O'zbekning chamani, bog'u bo'stoni. (G' G')**

Takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyishiq bo'laklar orasida: **U goh kulimsiraydi, goh chuqur o'yga toladi.** Zidlovchi bog'lovchilar yordamida birikkan uyishiq bo'laklar orasida: **Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. (PQ)**

Undalmalarni ajratish uchun: ertaga, azizim, to'yga jo'naymiz. Kirish so'zlarni va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lмаган kirish gaplarni ajratish uchun: **Xullas ertaga shu yerda yig'iladigan bo'ldilar. Men sizga aytsam, odamning yomoni bo'lmaydi.** Ha ya yo'q so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun: **Ha, bu gapingiz to'g'ri. Yo'q, ertaga kela olmayman.**

Gapning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun: **"Biz, yoshlar, ota – bobolarimiz qoldirgan bebaho merosi ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak".** Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar: **Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.**

Va, ham, hamda, yoki (yolg'iz kelgan ) bog'lovchilardan yana boshqa bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarda: **Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada, o'tirar edi.**

Ergash gaplarni ajratish uchun: **Hamma yig'ilgach, majlis boshlanadi.**

Muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish uchun: -Bugungi qilgan ezgu isglarimiz... kelajak uchun mustahkam poydevor yazifasini bajaradi..

1. Bir paytda yoki ketma-ket ro'y beruvchi voqea-hodisalarni ifodalovchi, tuzilish jihatdan bir xil bo'lib, sanash ohangi bilan talaffuz qilinuvchi gaplar orasiga vergul qo'yiladi: **Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi.**

(O.) Bahor keladi, daraxtlar barg yozadi, gullur ochiladi, gul atrofida bulbullar sayraydi. (I. R.) Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi. (Ertakdan.)

### NUQTALI VERGUL

Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatdan tugal fikrni anglatib bir biriga yaqin bog'lanmagan hollarda:

Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldida odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafoakashligi, g'ayrati farosati, el yurt uchun qayg'rishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi. (A.Qahhor)

Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber.

Yaxshimi yomon dema, olishing bo'lsa ham;

Yomonni yaxshi dema, yaqinig bo'lsa ham.

Uyishiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergul yordamida bir biridan ajratilganda har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin.

**Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humoqushi kumushrangda; quyosh, boshoqlar, paxta chanog'i va "O'zbekiston" degan yozuv tilla rangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar, yashil rangda; tog'lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.**

Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

**Otabek- o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;**

**Otabek-mard va jasur yigit;**

**Otabek – o'z ahdiga sodiq, vafoli yor.**

Nuqtali vergul quydagি o'rnlarda qo'llanadi:

O'z ichida vergul bo'lgan yoyiq uyishiq bo'laklar orasida:

**Mehnat, ijod, odam sharifi;**

**Dil yorug'I, hayot quyonchi**

**Hammasing asli manbai**

**Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi. (S. Nazar)**

O'z ichida verguli bo'lgan, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagи gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: Daraxtlar, butalar shitirladi: **Kuzning salqin nafasi yuziga urildi.** Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan gaplar orasida nuqtali vergul qo'yilishi ham mumkin. Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan

**og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hech kimni ko'rmaydi. (A. Q.)**

Qo'shma gap qismlarining o'z ichida verguli bo'lsa yoki mazmunan ancha mustaqil bo'lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo'yiladi.

## **IKKI NUQTA**

Ikki nuqta o'zbek yozuvida 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlagan. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi hisoblangan bog'lovchisiz qo'chma gaplardan so'ng:

**Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarag kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)**

Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng:

Uyishiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin.

O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari: **Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va davlat madhiyasi milliy iftihorimiz, sharof va shonimiz sanaladi.**

Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng:

**Mavzu: Alisher Navoiyning "Farhod va shirin" dostoni.**

**Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:**

Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni taminlash maqsadida turli hil rasmiy ma'lumotlarda nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin.

**Toshkentda "Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari" mavzusida uchunchi an'anaviy respublika ilmiy nazariy konfirensiyasi bo'lib o'tdi.**

Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng: Yig'ilishda tajribali ishchilar: **Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqishdi.**

Ba'zan umumlashtiruvchi so'z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo'yilaveradi: **qilinishi kerak: traktorlar ta'midan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin.**

Quyidagi ma'nolarni ifodalagan bog'lovchisiz qoshma gaplarda: bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish – harakatning sababini ko'rsatsa: **U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.**

Bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish – harakatning natijasini ko'rsatsa: **Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha munchasi sinib tushdi.**

Agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: vazifangiz shu: **bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.**

Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: **U baland ovozda so'radi: - Kim bor?**

#### TIRE

Tire quydagи o'rnlarda qo'llaniladi:

Ot, son, olmosh, va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: **O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Bularni amalga oshiradigan – o'sha. O'qish- hayotni uqish.**

Uyishiq bo'laklardan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: **Akam, opam va singlim –barchasi meni kutib o'tirishgan ekan.**

Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasiga: **Tunov kuni ovchi –men uni o'rmonda uchratib qoldim-menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi.**

Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: - **Bugun kelasizmi? – so'radi qizi.**

Dialog tipdagи ko'chirma gaplarda – **keldimi:- Keldimi?-keldi.**

Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: **kecha tog'amlarnikiga brogan edim – Asqarjon kelibdi!**

Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: **Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomisiz.** Ot kesimlar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanganda, ega bilan ot kesim orasiga tire qo'yiladi. Kesim bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanganda, ega ot, olmosh, otlashgan so'z yoki harakat nomi bilan ifodalanishi mumkin. Kesimlar ot, olmosh, otlashgan so'z bilan ifodalangan ega yo kesim bilan yoki har ikkisi o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelganda, tire kesimga oid so'zlardan oldin, bevosita egadan so'ng qo'yiladi.

1. Kesim harakat nomi yoki sanoq son bilan ifodalanganda ham ega bilan kesim orasiga tire qo'yiladi. Masalan, **Maqsadim - a'lo o'qimoq. Ikki karra ikki - to'rt.**

2. Ega bilan kesim bu, u, mana bu so'zlari bilan ajralganda ham, ega va kesim orasida tire ishlatiladi, tire bu so'zlardan oldin qo'yiladi. Masalan:

**Tinchlik - bu sevinchdir, hayotda lazzat,**

**Tinchlik - bu totuvlik, har ishda orom.**

Ega bilan kesim orasida tire qo'yilmasligining sababi shuki, kesim -dir, bo'ladi bog'lamalari bilan kelgan yoki kelishik qo'shimchasini olgan bo'ladi. Bundan tashqari, kesim sifat, ravish, egalik olmoshi yoki tartib son bilan ifodalanganda ham, ega bilan kesim orasiga tire qo'yilmaydi.

Ega bilan kesim orasida quyidagi o'rinnarda ham tire qo'yilmaydi:

1. Agar ega bilan kesim orasida ham yordamchisi bo'lsa: **Olma ham meva. Bular ham a'lochi.**

2. Kesim shaxs qo'shimchasini olsa yoki yuklama bilan birikib kelsa:

**Bu kishi muallimimiz. Bu ishni bajaruvchi sensan. Yuragi qalam-u, qog'ozi - keng yer. (H. Po'lat) A 'lochilaringiz Salimjonmi?**

3. Kesim sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalansa:

**Yurtimiz obod. Ona tilidan yuqori baho olgan talabalaming soni yigirma beshta. Nega yurishingiz sekin ?**

## QAVS

Qavs o’zbek yozuvida 19- asrning ohirgi choragidan boshlab ishlatila boshlagan. Dastlab Turkiston viloyatining gazetida 1873- yilda ishlatilgan. Kiritma gaplarda O’zbekiston paxta ishlab chiqarish bo’yicha yetakchi davlatlardan biri hisob (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o’rinda turadi.), eksport bo’yicha AQSHdan so’ng ikkinchi o’rinda turadi. Remerkalardan Xon (yolg’iz). Shu tiriklikdanda bezdirdilar meni (turib yuradur) bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. Shaxs, joy, asar hodisa va shu kabilar ikki xil variantda berilsa ulardan biri qavsga olinadi. “Qutadg’u bilig” (baxt keltiruvchi bilim) va shu kabilar ham kiradi. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo’lagiga qo’shimcha izoh beruvchi so’z yoki iboralar qavsga olinadi. Karimjon (sinfimizning a’lochisi) oliy o’quv yurtiga kiribdi.

Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire) qavsdan keyingiga ko’chiriladi. **Chavondoz bu gaplarni Ertoyevaga aytishini ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoyeva xafa bo’ladi, aytmasa bir joydan chatog’i chiqishi mumkin), boshi qotib... turganda... Gulchehra mojorosi chiqsa bo’ladimi? (O. YO)**

Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: **ukam (sen uni taniysan) bu yil mакtabni bitirdi. Aziz Kamol (xayol og’ushida ) Vatanimizga qarshi ko’tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho’qqisiga chiqdi. (S.Az) misol yoki ko’chirmaning manbai ... Eshik qars etib yopildi.(O.Y) kirish so’z yoki iboraga oid tinish belgilari qavsning ichiga olinadi. To’satdan uning xayoliga akasining bundan besh – olti oy oldin... yozgan xati (o’shandan beri undan dom-darak yo’q!) ...tushdi.(O.Y)**

## QO'SHTIRNOQ

Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi professor A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida 19- asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi. Qo'shtirnoq quydagi o'rnlarda ishlatiladi. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi.

**"Apil tapil qilingan ishning umri qisqa"** degan edi Sa'diy Sheroyi.

**I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: "Donishmandlik faqat haqiqatdadir".**

**"Er kishiga zeb-u ziynat, degan edi A.Navoiy, hikmat va donishdir".**

Sitatalarga qo'shtirnoq ichida yoziladi.

**Buyuk yozuvchimiz A.Qahhorning quyidagi gaplari hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: "Yozuvchi adabiyotga ikki hil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi. Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'ngildan chiqarib emas, qorindan chiqarib yozadi. Yozuvchillikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi".**

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

**... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning "jinoyati" o'n bir yillik qamoq bilan "taqdirlandi" (T.Malik)**

Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi.

**"Bilayn" qo'shma korxonasi. "Kochxolding" konserni, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Istiqlol" tennis sport majmui, "Diyor" savdo uyi.**

Transport (mashina, samolyot, avtobus) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklar turini, mahsulotlarning nomini ifodolavchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi.

**“Neksiya” rusumli yengil mashina, “Boing” samolyoti, “Otayol” avtobusi.**

Ayrim orden medallar, faxriy unvonlari nomi qo’shtirnoq ichida beriladi.

**“El- yurt hurmati ” ordeni 1998-yil 28-avgustda tasis etilgan. “O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni.**

Qonun, farmon, buyruqlarning nomi ayrim bandlari qo’shtirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni “Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etish to’g’risida”gi Qonuniga o’zgartirishlar kiritish haqida qonun qabul qilindi. Ko’chirma gaplarni ajratib ko’rsatish uchun: **“ertaga kelaman”- dedi.** Ko’chirma ma’nodagi shartli nom yoki taxallus ma’nosidagi ayrim so’z va so’z birikmalari ham qo’shtirnoqqa olinishi mumkin: **“Tog’ asali” sotadiagan yigit... dovonning narirog’iga o’tib ketgan. (S.Ahmad)**

Qo’shtirnoqqa olinishi kerak bo’lgan so’zlarda turlovchi (kelishik) qo’shimchalar mavjud bo’lsa, bu qo’shimchalar qo’shtirnoqdan keyin qo’yiladi. **Bularni ko’rgan Aziz o’zi haydab kelayotgan “GAZ -69”ning yurishini tezlatib, yo’lga chiqdi-da, “Jiguli” tomonga burildi. (H.G’.)**

**Nima qilay sart yigit yo’ldan urdi. “Sart xotiningni tashlama!” dedi shekilli, tag’in ziyoli. Iblis. (??)**

## NUQTA

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimiy arab mamlakatlariiga borib taqaladi. U o’zbek tilida tinish belgisi sifatida 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlagan. Nuqta his hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so’ng: **Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O’zingizga ravo ko’rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko’rmang. Farzandlarimiz doimo sog’lom bo’lsin. Atov gapdan keyin. Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yozayotgan palla.**

**Rahmat. Xo'p. eshit. Bizning tog'larimizda zo'r kuchga va ega bo'lgan navqiron ovchi yashardi.**

Ism, otasining ismi (bazan familiyasi ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng. **M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Cho'lpon, kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A. S. Pushkin- ruz poeziyasining quyoshi. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi va yoki bo'g'indan so'ng G'. G' (G'afur G'ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); kabilar kiradi.**

Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nutqa ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari ham bog'lanishi mumkin.

**Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.**

Bazi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yiladi. **21.04.2014.**

Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatish mumkin **T=3,14**

### **1. Nutqda quydagi o'rnlarda qo'llaniladi.**

Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his hayajon) gaplardan keyin: **Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o'z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uning kuchi yetsa.**

2. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng: "**Men hozir jo'nayapman, - dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo'lga chiqing**"

3. Qisqartirilgan ism va familalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin:

4. Sanash yoki ayrim fikrlarning qisqartmalarni ifodalagan va oy, kun, yillarni bir biridan ajratish uchun qo'llangan raqm yoki harflardan keyin. **27. 09. 2014.** kabi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida yana shuni takidlab o'tishimiz joizki, tinish belgilari, gaplardan shundaki emas, albatta, uning zamirida ma'na – mazmuning qanday talqini yotadi. Yuqoridagi keltirilagan misollardan ham ko'rinish turibdiki, tinish belgilarining ahamiyati beqiyos. Katta katta roman, hikoya, esse umuman olganda barcha badiiy asarlarning tasirchanligini yinish belgilari amalga oshiradi. Tinish belgilarisiz bizning yozma shakldagi adabiyotimiz, hujjatlarimiz o'z mazmuniga ega bo'lmas edi. Ular quruq, hech qanday ma'noni kasb etmasdi. Biz har jumamizni tilimiz orqali gapirayotganimizda, uning tasviri, yani qog'ozdag'i aksini, aynan, shu tinish belgilari bajaradi. Demak, tinish belgilari o'zbek adabiy tilida asosiy mavzulardan biridir. Shu sabab ham, biz qator izlanishlar mobaynida ko'rdikki o'zbek yozuvchi va uning tarkibiy qismlari, jumladan, tinish belgilarining o'rni beqiyosdir. Avvalo tinish belgilaridan o'rinli foydalanish asosiy nutq insonlarning bir- birlari bilan muloqot qilishlari uchun kerak bo'ladigan asosiy vositadir. Tinish belgilari esa bizni nafaqat badiiy adabiyotda, balki ijtimoiy – siyosiy hujjatlarni ham tayyorlashda hizmat qilishini bilib oldik. Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganida so'ng olib borilayotgan islohatlarning barchasi yurt istiqboli uchun bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz tomonidan ta'lim olishga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu esa o'z navbatida fuqorolarning savodli bo'lishini ta'minlab berdi. Buning natijasida tirishqoq, izlanuvchan, vatanparvar va ijodiy fikrlovchi insonlarga har sohada o'zlarini ko'rsatishlari uchun zamin yaratildi. Bu tilimizning rivojlanishiga ham sabab bo'ldi. Hozirda yoshlarning malakali mutahasis bo'lib yetishishlarida barcha fanlarning o'rni bor. Ammo ona tilisiz boshqa fanlarni o'zlashtirish oson kechmaydi. Shunday ekan tilni qanchalik yaxshi bilsak kundalik hayotimizda va ish faoliyatimizda bu narsa oz qotadi. Og'zaki nutqning aksi yozma matnda va uning tarkibida aks etadi. Ularni o'z

o'rnida to'g'ri foydalanish esa bu tilimizga bo'lgan hurmat va o'zimizga bo'lgan ma'suliyatdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilanish, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir,T.:”O'zbekiston”,2005 yil
- 2.Tursunov U, Muxtorov J,Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, “O'zbekiston”.1992.
- 3.Mirtojiyev.M. O'zbek tili leksikografiyasi,Toshkent,2000.
- 4.Ne`matov Sh, Rasulov. O`zbek tili leksikologiyasi asoslari, 1995.
- 5.Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent,1992.
- 6.Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. Toshkent,1978.
- 7.Cho`lpon.Kecha va kunduz.Toshkent “Yangi asr avlodi”,2013
- 8.Oybek. Navoiy
- 9.CHingiz Aytmatov. Qiyomat.Toshkent “O'zbekiston”, 2011